Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA XARAJATLARNI BOSHQARISH VA HISOBGA OLIHNING INNOVATSION USULLARI: MENEJMENT VA BUXGALTERIYANING O'ZARO INTEGRATSIYASI	742
Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	



RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	748
Uzoqov Suhrobjon Do'smat o'g'li	
OLIY TA'LIMNI MOLIYALASHTIRISH MODELLARI	754
Talapova Nargiza Baxriddinovna	
ВОЗОБНОВЛЕНИЕ ДОБЫЧИ ПРИРОДНОГО ГАЗА ИЗ ТРЁХ СКВАЖИН УЧАСТКА ХОДЖАСАЯТ ГКМ ДЕНГИЗКУЛЬ	758
Набиев Шахзод Темурович, Иргашбаев Шохрух Фаррух угли, Маннафов Улугбек Умар угли	
MADANIY TURIZM INDUSTRIYASINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	764
Toxirov Dilyor Davlatovich	
MOLIYAVIY AUTSORSING NAZARIYALARI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	768
Babadjanov Umiddbek Kamildjanovich	
TURIZM – TARIXIY XOTIRA VA ZAMONAVIY XIZMATLAR UYG'UNLIGI IFODASI	773
Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINING MOHIYATI VA BAHOLASH MEZONLARI	777
Abdikarimova Zilola Baxramovna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI	784
Ro'ziyeva Shaxlo Salimboyevna	
AXBOROT TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH VA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISHNI QO'LLAB-QUVVATLASH	788
Samiyeva Maftuna Faxriddin qizi	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI DAROMADLILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	791
Sanayev Javoxir Shovkat o'g'li	
FISCAL, MONETARY, AND CUSTOMS-TARIFF POLICIES IN ENSURING NATIONAL ECONOMIC STABILITY: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	796
Maxmudov S.T.	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ КЛАСТЕРОВ	801
Юсупова Н.Т.	
SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY FAKTORLAR TAHLILI	807
Rahimova Mushtariybegim Muxammadg'olib qizi	
DEMOGRAFIK O'ZGARISHLAR VA ULARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBATLARI.....	812
Abdumalikova G.F.	
MINTAQAVIY INVESTITSIYA SIYOSATINI SAMARALI BOSHQARISHNING IQTISODIY VA INSTITUTSION ASOSLARI	821
Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	
RAQAMLI AVIATSIYA EKOTIZIMI: AI/ML, DIGITAL TWIN VA BLOKCHEYN INTEGRATSIYASI	828
Azimova Moxinur Nozimovna	
XALQARO MOLIYA BOZORLARIDA INVESTITSIYA RISKLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI	834
G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATINING REKREATSIYA RESURSLARI VA DAVOLASH-SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMI SALOHİYATI	839
Murtazayeva Gulrux Isabek qizi	
MINTAQALAR TURISTIK-REKREATSION IMKONIYATLARINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY GIS USULLARINI QO'LLASH (SARIOSIYO TUMANI MISOLIDA)	845
Safarov Manuchexr Axtam o'g'li	
XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH	852
Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich	
TURIZM FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHGA OID NAZARIY BILIMLARINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI	857
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	



TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI MUSTAHKAMLIGINI BAHOLOVCHI KO'RSATKICHLAR TIZIMI	863
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	871
Maxsudov Sherzod Solijonovich	
FISCAL, MONETARY, AND CUSTOMS-TARIFF POLICIES IN ENSURING NATIONAL ECONOMIC STABILITY: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	877
Mahmudov Sarvar	
ATROF-MUHITGA OID FISKAL KO'RSATKICHLAR ASOSIDA MINTAQAVIY BAHOLASH	882
Zilola Rahmatova	



ATROF-MUHITGA OID FISKAL KO'RSATKICHLAR ASOSIDA MINTAQAVIY BAHOLASH

Zilola Rahmatova

Yangi O'zbekiston universiteti tadqiqotchisi

z.rakhmatova@newuu.uz

zilolarakhmatova@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0000-4077-2169>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mamlakatlarida atrof-muhitga oid fiskal ko'rsatkichlarning shakllanishi, ularning iqtisodiy barqarorlik va iqlim siyosatiga ta'siri chuqur tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Qozog'iston uglerod bozorini joriy qilgan yagona davlat bo'lsa, O'zbekiston yashil obligatsiyalar orqali xalqaro moliyaviy bozorlarni muvaffaqiyatli jalb qilmoqda. Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston esa asosan donor mablag'lari va subsidiya siyosatiga tayanmoqda. Maqola yakunida mintaqaviy siyosiy chora-tadbirlar bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: ekologik soliqlar, uglerod narxlash, yashil obligatsiyalar, yashil byudjet, fiskal barqarorlik, Markaziy Osiyo.

Abstract. This article analyzes the formation of environmental fiscal indicators and their impact on the fiscal sustainability of Central Asian countries. Using the cases of Kazakhstan, Uzbekistan, Kyrgyzstan, Tajikistan, and Turkmenistan, the study examines environmental taxes, fossil fuel subsidies, carbon pricing mechanisms, green bond issuance, and green public expenditures. The results show that environmental fiscal policy in the region remains underdeveloped and lags behind global standards. At the same time, Kazakhstan's experience with an Emissions Trading System (ETS) and Uzbekistan's issuance of sovereign green bonds are highlighted as positive examples. The paper concludes with specific policy recommendations for the countries of the region.

Key words: environmental taxes, carbon pricing, green bonds, green budgeting, fiscal sustainability, Central Asia.

Аннотация. В статье анализируется формирование экологических фискальных показателей и их влияние на устойчивость государственных финансов в странах Центральной Азии. На примере Казахстана, Узбекистана, Кыргызстана, Таджикистана и Туркменистана рассмотрены экологические налоги, топливные субсидии, механизмы ценообразования углерода, выпуск зеленых облигаций и государственные экологические расходы. Результаты показывают, что экологическая фискальная политика в регионе развита недостаточно и отстает от глобальных стандартов. Вместе с тем, опыт Казахстана по внедрению системы торговли выбросами (ETS) и выпуск зеленых облигаций Узбекистана приводятся как положительные примеры. В заключении даны рекомендации для стран региона.

Ключевые слова: экологические налоги, ценообразование углерода, зеленые облигации, зеленый бюджет, фискальная устойчивость, Центральная Азия.

KIRISH

So'nggi o'n yilliklarda iqlim o'zgarishi global iqtisodiyot uchun eng jiddiy tahdidlardan biriga aylandi. Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF, 2023) hisob-kitoblariga ko'ra, iqlim xavflarining fiskal oqibatlarini o'rtacha YalMning 1–3 foizini tashkil qilmoqda. OECD (2022) esa atrof-muhitga oid fiskal siyosatni barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy vositasi sifatida belgilaydi. Markaziy Osiyo davlatlari — Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston — yuqori iqlim xavfiga ega hududlardan biri bo'lib, muzliklarning tez erishi, cho'llanish, suv taqchilligi va energetika xavfsizligi bilan yuzlashmoqda.

Bu jarayonlarning barchasi davlat byudjetlari uchun qo'shimcha bosim yaratadi: bir tomondan favqulodda vaziyatlarga tezkor mablag' ajratish zarurati, ikkinchi tomondan esa yashil infratuzilmaga katta sarmoya kiritish ehtiyoji mavjud. Shu sababli, atrof-muhitga oid fiskal ko'rsatkichlarni (environmental fiscal indicators, EFI) shakllantirish va monitoring qilish davlatlar uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Atrof-muhitga oid fiskal ko'rsatkichlar (environmental fiscal indicators) masalasi so'nggi yillarda xalqaro ilmiy adabiyot va amaliy siyosatning diqqat markaziga aylandi. OECD (2022) tomonidan tayyorlangan "Effective Carbon Rates" hisobotida qayd etilishicha, uglerod narxlash mexanizmlari — ya'ni karbon soliqlari va emissiya savdo tizimlari — fiskal siyosatda eng samarali vositalardan biridir. OECD mamlakatlarida atrof-muhitga oid soliqlar YalMning o'rtacha 2 foizidan ortiqni tashkil qilsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 1 foizdan past. Bu tafovut fiskal islohotlar zaruriyatini ko'rsatadi.

Eurostat (2023) ma'lumotlari ham ekologik soliqlarning davlat byudjetidagi rolini yoritadi. Yevropa Ittifoqida ekologik soliqlar umumiy soliqlar tushumining 5–7 foizini tashkil qiladi. Bu tajriba shuni ko'rsatadiki, atrof-muhitga oid fiskal siyosat nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, balki byudjet daromadlarini diversifikatsiya qilishning ham samarali vositasidir.

Xalqaro energetika agentligi (IEA, 2023) o'zining "Fossil Fuel Subsidies Database" ma'lumotlarida yoqilg'i subsidiyalarining global miqyosda YalMning 7 foizigacha yetishini ko'rsatadi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo mamlakatlari yuqori subsidiyalar bilan ajralib turadi. Masalan, Turkmanistonda yoqilg'i subsidiyalari YalMning 7–8 foizini tashkil etadi. Bu esa davlat byudjetiga katta yuk bo'lishi bilan birga, yashil energiyaga o'tish jarayonini sekinlashtiradi.

Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF, 2023) "Fiscal Monitor" hisobotida iqlim xavflari va fiskal barqarorlik o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni ta'kidlaydi. Unga ko'ra, iqlim o'zgarishi oqibatida tabiiy ofatlar ko'payishi davlat xarajatlarini oshiradi va budjet defitsitini kuchaytiradi. Shu sababli fiskal siyosatga iqlim omillarini integratsiya qilish zarur.

Jahon banki (2021) O'zbekiston bo'yicha tayyorlagan "Climate Change and Development Report"ida mamlakat oldida turgan asosiy chaqiriqlar sifatida suv resurslari taqchilligi va energetika sektorining uglerodga yuqori qaramligi ko'rsatilgan. Ushbu hujjatda yashil obligatsiyalar emissiyasi va qishloq xo'jaligida risklarni sug'urta qilish kabi fiskal instrumentlar muhim tavsiya qilingan.

Xuddi shunday, Jahon bankining Qirg'iziston bo'yicha 2023-yilda tayyorlagan hisobotida (Kyrgyz Republic Climate and Development Report) mamlakatda tabiiy ofatlar tez-tez sodir bo'lishi fiskal barqarorlikka tahdid solayotgani ta'kidlangan. Shu sababli donorlar ko'magida "Disaster Risk Financing" tizimini joriy etish taklif qilingan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi (UNDP, 2023) O'zbekistonda qishloq xo'jaligi sug'urtasining joriy etilishi bo'yicha tahlilida bu mexanizm fiskal xavflarni kamaytirishga yordam berishini ko'rsatadi. Chunki hukumat favqulodda yordam mablag'larini ajratish o'rniga oldindan subsidiyalangan sug'urta orqali risklarni boshqaradi.

BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi (UNECE, 2024) Qozog'iston bo'yicha hisobotida ekologik soliqlar va emissiya savdo tizimining (ETS) joriy etilishi mintaqa uchun muhim qadam bo'lganini ta'kidlaydi. Ammo ushbu tizimdan byudjet daromadlari hali to'liq shakllanmaganini ham qayd etadi.

Jahon meteorologiya tashkiloti (WMO, 2023; 2024) "State of the Climate in Asia" hisobotlarida Markaziy Osiyoda iqlimning keskin o'zgarishi — muzliklarning erishi, cho'llanish va suv tanqisligi — kelajakda fiskal barqarorlikka jiddiy tahdid solishini ko'rsatadi. Bu esa ekologik fiskal siyosatni kuchaytirish zarurligini yanada oshiradi.

Osiyo Taraqqiyot Banki (ADB, 2024) esa Markaziy Osiyoda "Disaster Risk Financing" tizimlarini joriy qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi. Bu yondashuv tabiiy ofatlar sodir bo'lganda byudjetdan qo'shimcha mablag' ajratishni emas, balki oldindan tayyorlangan moliyaviy mexanizmlarni ishga tushirishni ko'zda tutadi.

Ushbu manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo mamlakatlari hali global standartlardan sezilarli darajada orqada qolmoqda. Ekologik soliqlar ulushi past, subsidiyalar yuqori, yashil xarajatlar esa juda cheklangan. Shu bilan birga, ayrim davlatlarda ilg'or tajribalar ham mavjud: Qozog'iston — uglerod savdosi, O'zbekiston — yashil obligatsiyalar va sug'urta, Qirg'iziston — donorlar ko'magidagi DRF tizimi.

Adabiyotlar sharhi asosida xulosa qilish mumkinki, mintaqada ekologik fiskal ko'rsatkichlar hali yangi bosqichda bo'lib, ularni mustahkamlash uchun xalqaro tajribani integratsiya qilish va milliy siyosatni uyg'unlashtirish talab etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy tahlil usuli qo'llanildi. Asosiy ko'rsatkichlar sifatida quyidagilar olindi:

- ekologik soliqlar ulushi (% YalM);
- yoqilg'i uchun subsidiyalar hajmi (% YalM);
- uglerod narxlash qamrovi (% emissiya);
- yashil obligatsiyalar hajmi (mlrd. AQSh dollari);



yashil byudjet xarajatlari (% umumiy xarajatlar).

Ma'lumotlar OECD, IEA, Jahon banki va milliy statistika organlari hisobotlari asosida yig'ildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Markaziy Osiyo davlatlarining atrof-muhitga oid fiskal ko'rsatkichlari (environmental fiscal indicators – EFI) ularning iqtisodiy siyosati, byudjet barqarorligi va iqlimga moslashuv salohiyatini baholash imkonini beradi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mintqa mamlakatlari global tajriba fonida hamon orqada qolmoqda, biroq ayrim davlatlarda ijobiy tajribalar ham mavjud. Quyida har bir mamlakat kesimida batafsil ko'rib chiqamiz.

1-jadval. Markaziy Osiyo davlatlari bo'yicha ekologik soliqlar va subsidiyalari

Davlat	Ekologik soliqlar (% YaIM)	Yoqilg'i subsidiyalari (% YaIM)
Qozog'iston	0,9%	3–4%
O'zbekiston	0,7%	4–5%
Qirg'iziston	0,5%	6–7%
Tojikiston	<0,5%	5–6%
Turkmaniston	<0,5%	7–8%

Qozog'iston mintaqada eng ilg'or fiskal instrumentlarni joriy etgan davlat hisoblanadi. 2013-yilda Emissiya savdo tizimi (ETS) ishga tushirilgan bo'lib, u 2023-yilga kelib issiqxona gazlari chiqindilarining 43 foizini qamrab olmoqda. OECD (2022) ma'lumotlariga ko'ra, Qozog'iston ekologik soliqlardan YaIMning 0,9 foiziga teng daromad olmoqda.

Biroq muammo shundaki, ushbu tizimdan tushadigan daromadlar davlat byudjetiga to'liq yo'naltirilmaydi, balki korporativ jarimalar shaklida qolmoqda. Shu sababli davlat budjeti uchun samaradorlik cheklangan. Shu bilan birga, yoqilg'i subsidiyalari yuqoriligicha qolmoqda — YaIMning 3–4 foiziga teng. Bu esa uglerod siyosatining samaradorligini kamaytiradi.

Qozog'istonning yashil xarajatlari umumiy budjetning 2 foizini tashkil etadi. Asosan energiya samaradorligi, suv resurslarini boshqarish va qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga yo'naltirilgan.

O'zbekiston so'nggi yillarda yashil obligatsiyalar emissiyasi bo'yicha mintaqada yetakchiga aylandi. 2021–2023-yillar davomida mamlakat 1,2 mlrd. AQSh dollari hajmidagi yashil va SDG obligatsiyalarini xalqaro bozorlarda joylashtirdi. Bu Markaziy Osiyo uchun yangi tajriba bo'lib, investitsiyalarni barqaror loyihalarga yo'naltirish imkonini bermoqda.

2-jadval. Yashil xarajatlar va uglerod narxlash

Davlat	Yashil xarajatlar (% byudjet)	Uglerod narxlash qamrovi
Qozog'iston	2%	43% (ETS)
O'zbekiston	1,5%	0%
Qirg'iziston	<1%	0%
Tojikiston	<1%	0%
Turkmaniston	<1%	0%

Ekologik soliqlar ulushi OECD va EU darajasidan ancha past — YaIMning 0,7 foizi. Yoqilg'i subsidiyalari esa 4–5 foizni tashkil etadi. Bu davlat budjetiga katta yuk bo'lishi bilan birga, yashil o'tishga salbiy ta'sir qiladi.

Davlat yashil xarajatlari umumiy budjetning 1,5 foiziga teng. Asosiy yo'nalishlar — sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilish, transport sektorida modernizatsiya va qayta tiklanuvchi energiya. Shu bilan birga, BMT Dasturlari ko'magida qishloq xo'jaligi sug'urtasi joriy etildi. Bu sug'urta mexanizmlari favqulodda byudjet xarajatlarini kamaytirishda samarali vosita bo'lishi mumkin.

Qirg'iziston ekologik fiskal ko'rsatkichlari bo'yicha zaif davlatlardan biri. Ekologik soliqlar ulushi atigi 0,5 foiz, yoqilg'i subsidiyalari esa 6–7 foizni tashkil etadi. Davlat yashil xarajatlari esa umumiy budjetning 1 foizidan ham kam.

Shu bilan birga, donorlar ko'magida “Disaster Risk Financing” (DRF) loyihalari joriy qilinmoqda. Osiyo Taraqqiyot Banki (ADB, 2024) ma'lumotlariga ko'ra, ushbu tizim ko'p qatlamli moliyaviy yondashuvni nazarda tutadi: tez-tez yuz beradigan ofatlar uchun budjet rezervlari, o'rtacha risklar uchun kredit liniyalari, yirik ofatlar uchun esa xalqaro sug'urta va obligatsiyalar.



Tojikiston ham Qirg'izistonga o'xshash tarzda ekologik fiskal ko'rsatkichlarda zaif natijalarga ega. Ekologik soliqlar ulushi 0,5 foizdan kam, yoqilg'i subsidiyalari esa YalMning 5–6 foizini tashkil etadi.

Mamlakatning asosiy xususiyati — elektr energiyasining 95 foizdan ortig'i gidroenergetikadan olinadi. Shu sababli iqlim o'zgarishi oqibatida suv resurslari kamayishi fiskal barqarorlikka jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Jahon banki (2022) hisob-kitoblariga ko'ra, qurg'oqchilik va suv oqimlarining kamayishi natijasida Tojikistonning elektr eksportidan tushadigan daromadi yiliga 10–15 foizga qisqarishi mumkin.

3-jadval. 2030-yilgacha tavsiya etilgan maqsadlar

Ko'rsatkich	Hozirgi o'rtacha daraja	2030-yil uchun maqsad
Ekologik soliqlar (% YalM)	~0,7%	1,5–2%
Yoqilg'i subsidiyalari (% YalM)	5–6%	<2%
Uglerod narxlash qamrovi	9% (faqat Qozog'iston)	40% mintaqaviy o'rtacha
Yashil xarajatlarni (% byudjet)	<2%	3–4%
Yashil obligatsiyalar (mlrd.\$)	1,2	5+

Yashil xarajatlarni ulushi ham juda past — umumiy byudjetning 1 foizidan kam. Donorlar tomonidan moliyalashtirilgan GES modernizatsiyasi loyihalari bu boradagi yagona yirik tashabbusdir.

Turkmaniston ekologik fiskal ko'rsatkichlar bo'yicha eng qoloq davlat hisoblanadi. Ekologik soliqlar ulushi 0,5 foizdan kam, yoqilg'i subsidiyalari esa mintaqada eng yuqori — YalMning 7–8 foizi.

Davlat yashil xarajatlari ham juda past — 1 foizdan kam. Asosan irrigatsiya loyihalariga yo'naltiriladi, biroq ular fiskal statistikada "yashil" sifatida ajratib ko'rsatilmaydi.

Shu bilan birga, hukumat rasmiy ravishda qayta tiklanuvchi energiya dasturlarini e'lon qilgan bo'lsa-da, ular amaliy fiskal ko'rsatkichlarga ta'sir qilmagan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, Markaziy Osiyo davlatlarida atrof-muhitga oid fiskal ko'rsatkichlar global me'yorlardan sezilarli darajada orqada qolmoqda. Ekologik soliqlar ulushi o'rtacha YalMning 0,7 foizini tashkil etmoqda, bu OECD mamlakatlaridagi ko'rsatkichdan (2 foiz) uch barobar pastdir. Aksincha, yoqilg'i subsidiyalari juda yuqori — Turkmanistonda 7–8 foiz, Tojikiston va Qirg'izistonda 5–7 foiz, O'zbekistonda 4–5 foiz, Qozog'istonda esa 3–4 foizni tashkil etmoqda. Bu subsidiyalar nafaqat davlat byudjetiga yuk bo'lmoqda, balki yashil energiyaga o'tish jarayonini ham sustlashtirmoqda.

Qozog'iston mintaqada yagona davlat sifatida emissiya savdo tizimini (ETS) joriy qilgan va issiqxona gazlari chiqindilarining 43 foizini qamrab olgan. Ammo ushbu tizimdan byudjet daromadlari to'liq shakllanmagan, chunki savdo mexanizmlari hali mukammal ishlamayapti. O'zbekiston esa suveren yashil obligatsiyalar emissiyasi orqali 1,2 mlrd. AQSh dollari miqdorida moliyaviy resurs jalb qilgan. Bu mintaq uchun innovatsion yondashuv hisoblanadi, ammo obligatsiyalarni samarali ishlatish, monitoring qilish va xalqaro hisobot standartlariga rioya etish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

Qirg'iziston va Tojikiston fiskal ko'rsatkichlar bo'yicha eng zaif mamlakatlar bo'lib, ular asosan donor mablag'lariga tayanmoqda. Bu davlatlarda tabiiy ofatlar tez-tez sodir bo'lishi sababli byudjet barqarorligi jiddiy xavf ostida qolmoqda. ADB va Jahon banki tomonidan taklif etilgan "Disaster Risk Financing" (DRF) tizimlari bosqichma-bosqich joriy qilinayotgan bo'lsa-da, hali milliy darajada institutsional asoslari to'liq shakllanmagan. Turkmanistonda esa yuqori subsidiyalar va yashil xarajatlarning pastligi ekologik fiskal siyosatni samarasiz qilib qo'ymoqda.

Umumiy natija shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo davlatlari uchun asosiy muammo — ekologik fiskal siyosatning yetarlicha institutsionalizatsiya qilinmaganligi. Shu sababli quyidagi takliflar ilgari suriladi:

YalMga nisbatan ulushni 2030-yilgacha kamida 1,5–2 foizga yetkazish zarur. Bu byudjet barqarorligini ta'minlash va yashil loyihalarni moliyalashtirishga yordam beradi.

Subsidiyalarni bosqichma-bosqich kamaytirish va ularni ijtimoiy himoya dasturlari bilan uyg'unlashtirish lozim. Bu aholining zaif qatlamlari uchun kompensatsiya mexanizmini yaratadi.

Qozog'iston tajribasidan kelib chiqib, mintaqaviy darajada uglerod narxlash mexanizmlarini joriy etish va integratsiyalash zarur. Bu nafaqat byudjet daromadlarini oshiradi, balki Yevropa Ittifoqining CBAM (Carbon Border Adjustment Mechanism) talablariga tayyorlanishga yordam beradi.

O'zbekiston tajribasi asosida boshqa davlatlarda ham suveren yashil obligatsiyalar emissiyasini joriy qilish tavsiya etiladi. Bu xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytiradi.

Har bir davlatda ekologik xarajatlarni alohida ko'rsatkich sifatida kiritish va ularga monitoring mexanizmini ishlab chiqish lozim.



Qirg'iziston va Tojikiston uchun xalqaro yordamni muvofiqlashtirish va milliy fiskal siyosat bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Suv resurslari, energiya ta'minoti va transport infratuzilmasi kabi umumiy muammolarni hisobga olib, ekologik fiskal siyosat bo'yicha Markaziy Osiyo darajasida yagona dastur ishlab chiqish lozim.

Shunday qilib, mintaqada atrof-muhitga oid fiskal ko'rsatkichlarni kuchaytirish nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki fiskal barqarorlik, investitsion jozibadorlik va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni kafolatlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Asian Development Bank (ADB). (2024). Disaster Risk Financing for Central Asia. Manila: ADB.
2. Eurostat. (2023). Environmental Tax Statistics. Luxembourg: Publications Office of the European Union.
3. International Energy Agency (IEA). (2023). Fossil Fuel Subsidies Database. Paris: IEA.
4. International Monetary Fund (IMF). (2023). Fiscal Monitor: Climate and Public Finance. Washington, DC: IMF.
5. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2022). Effective Carbon Rates 2022: Pricing Carbon Emissions through Taxes and Trading. Paris: OECD.
6. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2023). Green Budgeting in OECD and Partner Countries. Paris: OECD Publishing.
7. United Nations Development Programme (UNDP). (2023). Agricultural Risk Insurance in Uzbekistan: Risk Management and Subsidy Design. Tashkent: UNDP Uzbekistan.
8. United Nations Economic Commission for Europe (UNECE). (2024). Environmental Performance Review of Kazakhstan. Geneva: UNECE.
9. United Nations Framework Convention on Climate Change (UNFCCC). (2022). Biennial Update Reports: Central Asian States. Bonn: UNFCCC Secretariat.
10. World Bank. (2021). Uzbekistan Climate Change and Development Report. Washington, DC: World Bank.
11. World Bank. (2022). Tajikistan: Climate and Disaster Risk Screening Report. Washington, DC: World Bank.
12. World Bank. (2023). Kyrgyz Republic Climate and Development Report. Washington, DC: World Bank.
13. World Meteorological Organization (WMO). (2023). State of the Climate in Asia 2022. Geneva: WMO.
14. World Meteorological Organization (WMO). (2024). State of the Climate in Asia 2023. Geneva: WMO.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
